

HIKOYALARDA OBRAZ VA OBRAZLILIK MASALASI

Inobat Bazarbayeva,

Qoraqalpoq davlat universiteti, magistrant

Annotatsiya: Mazkur maqolada yozuvchi va publitsist Nabi Jaloliddinning “Mustaqillik” nomli hikoyasi qamrovga olinib, tahlil qilinadi, hikoyaning uslubi, mavzu va g’oyasi, yozuvchi mahorati, obraz va obrazlilik masalalariga e’tibor qaratiladi. Adib asarlarida qahramonlar ruhiyatining badiiy talqini haqida fikr mulohazalar olib boriladi.

Kalit soʻzlar: hikoya, mavzu va g’oya, yozuvchi mahorati, obraz va obrazlilik, uslub va tagma’no, badiiyat.

Аннотация: В данной статье рассматривается рассказ «Независимость» писателя и публициста Наби Жалолиддина, проводится его анализ, уделяется внимание стилю, теме и идее произведения, мастерству писателя, вопросам образов и образности. Рассматривается художественная интерпретация внутреннего мира героев в произведениях автора.

Ключевые слова: рассказ, тема и идея, мастерство писателя, образы и образность, стиль и подтекст, художественность.

Annotation: This article examines and analyzes the short story "Independence" by writer and publicist Nabi Jaloliddin, focusing on its style, theme, and idea, as well as the writer's mastery, imagery, and artistic expression. The artistic interpretation of the characters' inner world in the author's works is also discussed.

Keywords: short story, theme and idea, writer's mastery, imagery and figurativeness, style and subtext, artistic value.

Zamonaviy oʻzbek adabiyotining atoqli vakillaridan biri –yozuvchi, publitsist Nabi Jaloliddindir. Adabiy jarayonda Nabi Jaloliddinning qator hikoyalari xususida iliq fikrlar aytiladi. Ma’lumki, hikoyachilik nasrning eng ilg’or va tezkor janridir. Yozuvchi hikoyalari oddiy hayotiy voqealar tasviri orqali namoyon bo’lsa-da, ayni vaqtda tag ma’no o’zida davr belgilarini, zamon dardlarini, yuksak insoniy his tuyg’ularni aks ettirgan. Nabi Jaloliddin mavzu tanlashda jamiyatdagi, insonlar orasidagi, eng dolzarb muammolarni qalamga oladi. Xususan, “Mustaqillik” hikoyasi ham ana shu jihatdan xarakterlidir.

Nabi Jaloliddinning “Mustaqillik” hikoyasining mazmuni va g’oyasiga e’tibor qaratadigan bo’lsak, hikoya mustaqillik yillarida o’zgarib borayotgan jamiyatning turli qatlamlariga mansub insonlar orasidagi munosabatlar, ularning dunyoqarashi, hayotga bo’lgan turli xil qarashlari haqida hikoya qiladi. Asar Sulton buvaning vafoti va janoza marosimi atrofida qurilgan bo’lsa-da, voqealar jarayonida odamlarning ichki dunyosi, jamiyatdagi o’zgarishlarga bo’lgan munosabatlari ochib beriladi.

Asarning nomi „Mustaqillik” bo’lsa-da, unda mustaqillikning shaxsiy va ijtimoiy qirralari har xil obrazlar orqali yoritiladi. Bosh qahramon – jurnalist bo’lib, u odamlarning gap-so’zlarini kuzatib, ichida o’z xulosalarini chiqaradi. Odamlarning qarashlari esa har xil: kimdir mustaqillikni qo’llab-quvvatlaydi, kimdir esa shubha bilan qaraydi, hatto ayrimlari uni ochlik va qashshoqlik bilan bog’laydi.

Yozuvchi hikoyaning boshlanishida Sulton buvaga “Qishloqning ustunlaridan edi. Choponining yag’rini quyoshda oqshaygandi. U o’tirgan joydan o’tgan ulovlar to’xtashga, ulovdorlar esa yerga tushishga majbur bo’lardilar. Qoyaning salobatu soyasi bor edi cholda” - deya ta’rif beradi. Ko’rinib turibdiki, bu ta’rif orqali yozuvchi Sulton buvaning qishloqdagi obro’-e’tiborini, mavqeini va uning qadr-qimmatini naqadar yuksak bo’lganini badiiy tasvir vositalari orqali ochib beradi. Yana shuni aytish mumkinki, muallif ushbu ta’riflardan ramziy ma’noda ham foydalangan. “Qishloqning ustunlaridan edi” – bu jumla Sulton buvaning qishloqda yetakchi, hurmatli va ta’sirli inson bo’lganini bildiradi, u shunchaki oddiy qariya emas, balki butun jamiyatga ta’sir ko’rsatgan shaxsdir. Hikoyada tashqi ko’rinish orqali timsol yaratilganini ham ko’rish mumkin, „Choponining yag’rini quyoshda oqshaygandi.” – bu jumla uning umrining katta qismini ochiq havoda, mashaqqat va mehnat bilan o’tkazganidan darak

beradi. Quyoshda qorayib ketgan chopon qahramonning uzoq umr ko'rgan, tajribali va hurmatga sazovor inson ekanligini anglatadi. "U o'tirgan joydan o'tgan ulovlar to'xtashga, ulovdorlar esa yerga tushishga majbur bo'lardilar" - bu ibora uning atrofdagi odamlarga qanchalik ta'sirli shaxs bo'lganini tasdiqlaydi. U faqat kekxa qariya emas, balki hurmat va ehtiromga sazovor, gap-so'zi o'tadigan, odamlarga o'z ixtiyori bilan emas, balki tabiiy ravishda ta'sir o'tkazadigan shaxsdir. Bu qishloq an'analari hurmatga loyiq insonlarga bo'lgan munosabatni ham aks ettiradi. "Qoyaning salobatu soyasi bor edi cholda" - bu jumlada Sulton buvani tog', qoyaga o'xshatadi. Qoya qattiq, mustahkam, e'tiborli va himoya beruvchi timsol sifatida talqin qilinadi. U nafaqat o'z oilasi, balki butun jamiyat uchun tayanch bo'lgan. Uning soyasi esa himoya, obro', mavqe va ta'sirni anglatadi. Ya'ni, qishloq aholisi uning rahnamoligini, maslahati va obro'sidan foydalanganligiga ishora qilingan. Ushbu ta'riflardan anglashiladiki, Sulton buva oddiy inson emas, balki qishloqning ustuni, tajribali, hurmatga sazovor va jamiyatning muhim qismi bo'lgan shaxs sifatida tasvirlangan. Muallif badiiy vositalar, ramziy tasvirlar va metaforalar orqali qahramonning salobati, hurmatga sazovorligi va ta'sirchanligini juda samarali ochib bergan.

Asarda har bir obraz o'zining ijtimoiy mavqei, hayotga bo'lgan munosabati bilan esda qoladi: "Jurnalist" - fikrlovchi, jamiyatdagi muammolarni chuqur anglaydigan, mustaqillikni qadrlaydigan, biroq odamlarning saviyasiz muhokamalaridan bezillab ketadigan ziyoli. "Shippakli odam" - oddiy xalq vakili, halol mehnat qilib, bolalarining kelajagiga intiladigan odam. Uning o'g'li o'qib Angliyaga ketgan, bu xalqning oldinga intilayotgan qatlami borligini ko'rsatadi. "Fermer" - hozirgi zamonning pragmatik kishisi. Uning uchun mustaqillik iqtisodiy manfaatlariga bog'liq. U bozorda bug'doy narxi oshishini kutadi va har qanday vaziyatdan foyda olishni o'ylaydi. "Savdogar" - pul topish bilan band bo'lgan, faqat o'z manfaatini o'ylaydigan shaxs. "Qori" - eski diniy qarashlarga amal qiluvchi, sho'ro davrini yomon deb biladigan, lekin o'tmishdagi dinga bo'lgan cheklovlardan shikoyat qiluvchi shaxs. "Oq do'ppichali kishi" - sho'ro davrining yo'qotishlarini ich-ichidan his qiladigan, qattiq achchiqlangan shaxs. Uning o'g'li Afg'on urushida nobud bo'lgan va u mustaqillikka ishonmaydi. Bu obrazlarning har biri mustaqillikni turlicha qabul qilayotganini yozuvchi mohirlik bilan ko'rsatib beradi.

Hikoyada Sulton buvaning mustaqillik e'lon qilinganida yig'lagani haqida gap ketadi. "U nima uchun yig'lagan?" - degan savol paydo bo'lishi tabiiy. Chunki yoshligida uning otasi qamalib, otib tashlangan. Sho'ro davri unga adolatsizlik keltirgan. Shu sababli, u mustaqillikni orzu qilgan va bu kunni ko'rganida hayajonga tushgan.

Biroq jamiyatdagi odamlarning hammasi ham mustaqillikni bir xil qabul qilmaydi. Ayrimlari uni qiyinchilik, ochlik bilan bog'laydi. Fermer esa mustaqillik haqida gapirganda faqat bozordagi narx-navolarni o'ylaydi. Savdogar esa avvalgi davrning kamchiliklarini eslamay, faqat o'zining boyib ketganini ko'radi. Bu esa hikoyada mustaqillik yillaridagi ijtimoiy tafovutlarni ochib beradi.

Nabi Jaloliddin asarda mustaqillikni yuksak qadriyat sifatida ko'rsatadi, biroq uning xalq tomonidan qanday qabul qilinayotganini tanqidiy nuqtai nazardan ochib beradi. U odamlarning tor dunyoqarashlarini, faqat ,oddiy manfaatni o'ylashi yoki o'tmishning yomon va yaxshi tomonlarini ajratolmasligi haqida o'ylantiradi. Jurnalist obrazi orqali muallif o'z fikrini bildiradi: "odamlar mustaqillikni to'g'ri anglab yetishlari kerak". Unda iqtisodiy qiyinchiliklar bo'lishi mumkin, lekin bu qiyinchiliklar hamma narsa mustaqillikdan yomon degan xulosa chiqarishga sabab bo'lmasligi kerakligi haqida so'z boradi.

Hikoya juda jonli yozilgan bo'lib, har bir dialoglar orqali obrazlarning tabiatlari ochib beriladi. Janoza marosimida turli toifadagi odamlarning yig'ilishi orqali yozuvchi jamiyatdagi mavjud munosabatlarni yaqqol ko'rsatib bergan. Yozuvchi o'z qahramonlarini tasvirlashda xolis, hayotiy, jonli odam sifatida ifodalash mahoratini puxta o'zlashtirgan, ya'ni muallif asarlarini xayoliy uydurmalariga emas, hayotiy, real voqealar asosiga quradi. U o'zining asar yakunida nima demoqchi ekanligini ham ochiq bayon etmaydi, falsafiy -estetik xulosalarni, mushohadaga chorlaydigan yakuniy fikrni u o'quvchining o'ziga qoldiradi, ammo obrazlarni, asosan, ramziy fonda aks ettirmaydi.

Muallifning obraz yaratishdagi yana bir mahorati shunda namoyon bo‘ladiki, Nabi Jaloliddin xatto kichik janr atalmish mo‘jazgina hikoyalarda ham obrazlarni xarakter darajasiga chiqara oladi. Hikoyada harakter darajasiga ko‘tarilga obrazning xususiy belgilari ipidan-ignasigacha tasvirlanmasa ham, muallifning ma’naviy-estetik konsepsiyasini ifodalashga, ulkan g‘oyani ilgari surishga xizmat qiladi va o‘zida jamiyatning tarixan aniq tipini mujassamlashtirishga yo‘naltirilgan bo‘ladi.

Umuman, Nabi Jaloliddinning “Mustaqillik” hikoyasi jamiyatda mustaqillikka bo‘lgan turli qarashlarni ochib beradi. Asarda mustaqillik qadriyat sifatida himoya qilinadi, biroq unga noto‘g‘ri yondashayotgan qatlamlar tanqidiy yoritiladi. Hikoya o‘quvchini mustaqillikni chuqurroq anglashga, o‘z tarixiga to‘g‘ri baho berishga va kelajakka hushyor qarashga chaqiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Dilmurod Qur'onov “Adabiyot nazariyasi asoslari”. Toshkent “Navoiy universiteti” 2018
2. No‘mon Rahimjonov “Badiiy so‘z estetikasi”. G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyotmatbaa ijod uyi. Toshkent-2017
3. Umarali Normatov “Umid baxsh tamoyillar”. Toshkent “Ma’naviyat ” 2000
4. Urushning davomi: qissa,hikoyalar va roman / N. Jaloliddin.-Toshkent: G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot –matbaa ijodiy uyi, 2021. – 336 b.
5. Ulug‘ov Abdulla, “Adabiyotshunoslik nazariyasi”, T.:G‘ofur G‘ulom nomidagi nashriyot – matbaa ijodiy uyi, 2018.